



SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI




SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRILISHI

*(2023-yilning yanvar-sentabr
oylari uchun dastlabki
ma'lumot)*



Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 22 916,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi* 105,6 % ni tashkil etdi.

yanvar-sentabr
mlrd. so'm



yanvar-sentabr
FHI, % da






■ mlrd. so'm ■ FHI % da

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (18 479,0 ming. so'm) hamda Jomboy tumanida (11 859,2 ming. so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.





Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari (2023-yil yanvar-sentabr oylarida)

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 22 295,9 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 97,3 % ni, tashkil etdi.



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Samarqand shahri (46,6 %), Jomboy tumani (9,7 %), Urgut (7,3 %), hamda Samarqand tumani (6,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Bulung'ur tumanida (113,8 %), Oqdaryo tumanida (112,2 %) hamda Qo'shrabot tumanida (110,5 %) kuzatildi.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 2023-yil yanvar-sentabr oylari

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi oʻsishining asosiy omili boʻlib, Ishlab chiqarish – 7,3 % ga hamda Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilishda – 31,8 % ga, oʻsishi kuzatildi.

Shuningdek, Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash - 18,7 % ga hamda Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalashning – 49,8 % ga pasayish kuzatildi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 196,6 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning o'zgarish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 % ni (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida – 0,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 15,7 % (14,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 20,0 % (19,4 %) va quyi texnologiyalisi – 59,3 % (62,9 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 3,7 % (2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 86,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 10,9 % (2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 101,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 22,3 % (2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 115,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 39,8 % (2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 111,8 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-sentabr	2023-yil yanvar-sentabr	Farqi, +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	125,8	39,3	- 86,5
Paxta tolasi, ming t.	36,2	42,2	6,0
Tozalangan paxta yog'i tonna	11 440,0	14 452,0	3 012,0
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	251,0	430,2	179,2
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g. (buxanka), tonna	452,5	528,9	76,4
Uzum vinosi - ming litr	25,0	10,4	-14,6
Aroq – ming litr 100 % spirt	53,9	12,6	- 41,3

2023-yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), 528,9 tonna (2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 16,9 % ga ko'paygan), 39,3 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (68,8 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.

Yuk avtomobillari ishlab chiqarish

(2023-yil yanvar-sentabr oylarida)

Samarqand viloyatida 2023-yil yanvar-sentabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 2 213 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 27,7 % ga kamaygan.



2023-yil

2 213 dona

2023-yil

72,3 %

2022-yil

3 059 dona

2022-yil

95,2 %

2021-yil

3 213 dona


2021-yil

109,4 %

Avtobuslar ishlab chiqarish

(2023-yil yanvar-sentabr oylarida)

Samarqand viloyatida 2023-yil yanvar-sentabr oylarida 647 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatgich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 24,0 % ga kamaygan.



2023-yil

647 dona

2023-yil

76,0 %

2022-yil

851 dona

2022-yil

122,3 %

2021-yil


696 dona

2021-yil

134,1 %




Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 12,0 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 143,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 10,9 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa 101,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2 430,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 4,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 101,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 3,7 % gacha ko'tarilgan, fizik hajm indeksi esa, 86,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 817,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 27,9 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 101,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 29,5 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 116,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 6 576,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 110,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,5 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 158,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 327,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 17,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 81,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,5 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 117,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 4 133,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kiyim ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 100,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,8 %, fizik hajm indeksi 110,4 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 622,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.





Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 85,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 134,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 268,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish



2022-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 151,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 %, fizik hajm indeksi 184,1 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 292,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 134,8 % .

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi 116,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 575,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 139,1 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi 117,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 576,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 90,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi 113,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 589,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 12,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 102,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 10,7 %, fizik hajm indeksi 79,5 % ga hamda ishlab chiqarish hajmi 2 381,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 254,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ni) tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 50,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-sentabr	2023-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	381 809,9	99 315,8	- 282 494,1
Issqlik energiyasi, ming, gkal	4 444 814,0	3 537 329,6	- 907 484,4


(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



Elektroenergiya



Issqlik energiyasi



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 169,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-sentabr	2023-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	28 631,9	38 861,6	9 457,6
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	77,0	86,8	9,2
Plastmassa chiqindilari, tonna	661,4	2 175,7	1 434,9

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*



Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar


Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra



Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 32,9 % shuningdek, Toyloq 14,0 %, Urgut 11,7 % ni hamda Samarqand tumanlarida 10,5 % ni tashkil etdi




■ mlrd. so'm — o'zgarish sur'ati

yanvar-sentabr
mlrd.so'm



Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida
iste'mol mahsulotlarining
ulushi


yanvar-sentabr
o'sish sur'ati





Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 897,4 ming so'm bo'lgan holda, Samarqand shahrida – 4 485,2 ming so'mni, Toyloq tumanida – 5 056,4 ming so'mni, Jomboy tumanida – 3 715,1 ming so'mni va Samarqand tumanida – 3 058,9 ming so'mni tashkil etdi.

yanvar-sentabr
ming. so'm



yanvar-sentabr
o'sish sur'ati



■ ming so'm ■ o'zgarish sur'ati

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 7 878,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 105,2 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 34,4 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



51,2 %

2023-yil
yanvar-sentabr



36,6 %

2022-yil
yanvar-sentabr



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda 4 032,7 milliard so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 4,8 % ga oshdi.

2022-yilning shu davriga nisbatan viloyat buyicha o'tacha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda Oqdaryo tumani (138,2 %), Jomboy tumani (128,7 %), Ishtixon tumani (125,6 %) hamda Samarqand tuman (112,0 %) korxonlari tomonidan yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar



48,8 %

2023-yil
yanvar-sentabr



63,4%

2022-yil
yanvar-sentabr



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 51,2 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 48,8 % ni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmda oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 36,6 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 63,4 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2022-yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 104,8 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 99,4 % ni tashkil etdi.





Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 39,7 % ni, shuningdek, tumanlardan Urgut 13,8 %, Toyloq 13,7 %, hamda Samarqand tumani 8,6 % ni tashkil etdi.



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi





■ mlrd. so'm ■ o'zgarish sur'ati

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati



Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 26,4 % ni, shuningdek, Toyloq tumani 14,2 % ni, Jomboy tumani esa 13,7 % ni tashkil etdi.

yanvar-sentabr
mlrd.so'm



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

yanvar-sentabr
o'sish sur'ati



■ mlrd. so'm - o'zgarish sur'ati

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 6 246 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 217 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 19,5 %) Samarqand shahriga, 843 tasi (13,5 %) Urgut tumaniga, 617 tasi (9,9 %) Samarqand tumaniga, 492 tasi (7,9 %) Pastdarg'om tumaniga va 366 tasi (5,9 %) Ishtixon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan

1 024 ta

2023-yil yanvar-sentabr

1 295 ta

2022-yil yanvar-sentabr

1 591 ta

2021-yil yanvar-sentabr



Jami faoliyat yuritayotgan

6 246 ta


2023-yil 1-oktabr holatiga

8 622 ta

2022-yil 1-oktabr holatiga

8 224 ta


2021-yil 1-oktabr holatiga





Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 10 042,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 43,8 % ni tashkil etdi.

yanvar-sentabr
mlrd.soʻm



yanvar-sentabr
ulushi % da



■ mlrd. soʻm ■ oʻzgarish surʼati